



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 9-oktabr, № 206 (8829)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MDH DOIRASIDAGI AMALIY HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-8-oktyabr kunlari amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo'ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-oktyabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o'tgan sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan, shuningdek, MDH bosh kotibi Sergey Lebedev qatnashdi. Kun tartibiga muvofiq ko'p qirrali

munosabatlarning holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, MDH doirasidagi amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Rossiyaning Hamdo'stlikda raisligi davrida ko'p tomonlama hamkorlik barcha yo'nalishlarda rivojlanganini yuqori baholadi.

MDH mamlakatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq vaziyatga alohida e'tibor qaratildi.

MDH mamlakatlari maxsus xizmatlari va vakolatli idoralarning tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish, bugungi tahdidlarga qarshi kurashish usullarini takomillashtirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida kelishilgan choralar

hamda dasturiy hujjatlarni qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

Hamkorlikning iqtisodiy yo'nalishida birgalikdagi faoliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini qayd etildi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 16 foizga oshgan. Muvaffaqiyatli sanoat kooperatsiyasiga ko'plab misollar mavjud.

MDH tarmoq kengashlari va qo'mitalari faoliyatini faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Kelgusi yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish taklif etildi.



Yaqinda bo'lib o'tgan MDH mamlakatlari yetakchi tahliliy markazlarining Toshkent konferensiyasi natijalarini hisobga olgan holda uzoq muddatli sheriklikning yangi ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi.

Xususan, internet texnologiyalari va "katta ma'lumotlar" industriyasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni jadal joriy etish, kreativ iqtisodiyot, "yashil" energetika va yadro texnologiyalari, iqlim muammolari va boshqalar shular jumlasidan.

Shu munosabat bilan MDH mamlakatlari ekspertlari va tahlilchilarining uchrashuvlarini muntazam o'tkazish hamda navbatdagi konferensiyani

Samarqand shahrida sun'iy intellektni rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazish taklif etildi.

Gumanitar almashinuvlarni kengaytirish maqsadida Hamdo'stlik davlatlari madaniyati kunlarini o'tkazish taklif qilindi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash, ta'lim, san'at, kino, turizm va sport sohalarda qo'shma tadbirlar dasturini har yili tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

Samarqand va Toshkentni tegishli Hamdo'stlikning madaniy poytaxti va yoshlar poytaxti deb e'lon qilinishi doirasidagi loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda shaxmat va futbol bo'yicha yoshlar

jamoalari o'rtasida MDH ochiq kubogi musobaqalari o'tkaziladi.

Yakunda O'zbekiston Prezidenti Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni 2025-yilda tashkilotga raislikni qabul qilgani bilan tabriklandi.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bir qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Oliy Majlis Senatida

«XOTIRA POYEZDI» ISHTIROKCHILARI BILAN MULOQOT

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva "Xotira poyezdi" madaniy-ma'rifiy tadbirida ishtirok etgan yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, 2022-yilda yo'lga qo'yilgan ushbu loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni Ikkinchi jahon urushi tarixi bilan chuqurroq tanishtirish, qirg'inbarot janglar kechgan joylarga borib, uning dahshatlari, talafotlari

haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish, ajdodlarimizning qahramonliklarini bir umr yodda saqlash avlodlarning muqaddas burchi ekanini anglatishdan iborat. Shu va boshqa savollarga batafsil ma'lumotlar olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal BURHONOV bilan suhbatlashdik.

qilingan "Xotira poyezdi" loyihasi O'zbekistondan 15 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida yoshlarning mazkur loyihadan olgan taassurotlari va fikr-mulohazalari hamda mas'ullarning taklif-tavsiyalari eshitildi.



KORRUPSIYA —

JAMIYATNI TURLI YO'LLAR BILAN ISKANJAGA OLADIGAN DAHSHATLI ILLAT

"Jamiyatimizda korruptsiya illati o'zining turlari ko'rinishi bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmontlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Bundan to'rt yil avval Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlangan ushbu fikrlar bugun ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Korruptsiyaga qarshi kurashishning sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi mahsuli,

Bizning intervyu

— Korruptsiyaning har qanday davlat va jamiyat rivojidagi xavfi haqida uzoq gapirish mumkin, lekin men uning eng katta xavfini fuqarolarning ijtimoiy adolatga, hukumat va davlat organlariga ishonchi yo'qolishida,

deb bilaman. Bu esa o'z-o'zidan milliy xavfsizlikka tahdid, taraqqiyotga qarshi qaratilgan harakat degani. Va yana bir xavfli tomoni — korruptsiya keltirib chiqaradigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar bir davlat

doirasida cheklanib qolmay, global ta'sirga ega bo'ladi, ya'ni dunyoning qay bir nuqtasida bo'lmang, hech kim korruptsiyaning salbiy oqibatlaridan himoyalangan emas, — deydi A. Burhonov. — Shuning uchun ham bu illat katta va kichik, rivojlangan yoki rivojlanayotgan bo'lishidan qat'i nazar, jahonning barcha mamlakati uchun



SAYLOV — 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomidan "Sifatli ta'lim va tarbiya — barkamol avlod salohiyatini ro'yobga chiqarishning muhim poydevori" sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

Saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish kunlari va vaqti belgilandi

Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berishlarini tashkil qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning saylov huquqlarini ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlar, xorijiy davlatlarning kuzatuvchilarini akkreditatsiyadan o'tkazish hamda boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Majlisda saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilar uchun 2024-yil 16 — 23-oktyabr kunlari muddatidan oldin ovoz berishni tashkil etish to'g'risidagi Markaziy saylov komissiyasining qarori qabul qilindi.

Muddatidan oldin ovoz berish kunlari saylov uchastkalarida ovoz berish vaqti ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar, dam olish kunlari esa soat 11:00 dan 17:00 ga qadar davom etishi belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish ushbu saylov uchastkalari joylashgan davlatdagi mahalliy



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI

vaqt bilan soat 9:00 dan 18:00 ga qadar amalga oshirilishi belgilab berildi.

Saylov kodeksi va "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunda nogironligi bo'lgan fuqarolar o'zining barcha konstitutsiyaviy huquqini, jumladan, saylov huquqini boshqa fuqarolar bilan teng va erkin amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga oid qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.



«ХОТИРА ПОЕЗДИ»
ИШТИРОКЧИЛАРИ
БИЛАН МУЛОҚОТ

Shuningdek, Oliy Majlis Senati Raisi Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston ishtirokining muhim jihatlari to'xtalib o'tdi. Jumladan, o'sha paytda mamlakatimizda yashagan 6,5 million aholining 1,5 millionidan ortig'i urushda qatnashgan. Ularning 500 mingdan ziyodi halok bo'lgan va 133 mingga yaqin yurtdoshlarimiz bedarak yo'qolgan, 60 mingdan ortiq vatandoshlarimiz urushdan nogiron bo'lib qaytgan.

Xalqimiz urush tufayli front hududlaridan ko'chirib keltirilgan qariyb 1,5 million kishini o'z birodarlaridek qabul qilgan. Ularning 250 mingdan ziyodi bolalar edi. Yuzlab o'zbek oilalari evakuatsiya qilingan yetim bolalarni o'z bag'riga olgani, oxirgi burda nonini ham ular bilan baham ko'rgan insonparvarlikning chinakam namunasidir.

Xalqimizning Ikkinchi jahon urushi davrida jang maydonlarida va front ortida ko'rsatgan qahramonligi shu qadar yuksakki, albatta, shonli g'alabani O'zbekistonsiz, o'zbek xalqsiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti fidoyilari nomini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini ulug'lash maqsadida yurtimizda keyingi yillarda ko'plab ezgu ishlar ro'yog'ga chiqarildi.

Xususan, Toshkent shahrida "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi barpo etildi. Ushbu majmuadagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlari ham diqqatga sazovor.

Bu yerdagi har bir obyekt, qurilma va eksponat xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni urushning dahshatli oqibatlarini hech qachon unutmaslikka, bugungi tinch va osuda hayot, mustaqillikning qadriga yetishga, doim ogoh va hushyor yashashga, Vatan himoyasiga hamisha tayyor turish ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham e'tibordir.

Uchrashtiruvchi Senat Raisi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar xususida atroflicha to'xtaldi.

O'z navbatida, muloqotda bugungi avlodlar qahramon ajdodlarimizning shonli an'ana va qadriyatlarini munosib davom ettirishga, o'z Vataniga sadoqat bilan xizmat qilishiga, uning himoyasiga hamisha shay turadigan jasur va mard insonlar sifatida kamolga yetishlariga ishonch bildirildi.

"Xalq so'zi".

Inson manfaatlariga qaratilgan ezgu maqsadlar

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi majlisida bir qator qonunlar muhokama qilindi.

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti va qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, qonun tashabbuskorlari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Senat qo'mitasida

Majlisda dastlab "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, ushbu qonun mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalashni yanada to'laqonli ta'minlash va kuchaytirishni nazarda tutuvchi qator o'zgartirishlarni qamrab olgan.

Xususan, qonun orqali Ombudsmaning qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish

huquqi joriy qilinmoqda.

Ombudsman va uning o'rinbosari vakolatlari, daxsizligining qo'shimcha kafolatlari ham joriy etilib, ularga yuklatilgan vazifalarning muammosiz va samarali bajarilishi ta'minlanmoqda. Qonunda jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalari hududida "ombudsman qutisi" tushunchasi kiritilib, unga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning murojaat qilish tartibi belgilandi. Ombudsmaning mintaqaviy doimiy vakili maqomi ham joriy etilmog'ida.



Muhokama davomida senatorlar tomonidan qonunning qabul qilinishi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning mustaqil milliy institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirishi, faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirishi va uning inson huquq hamda erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi vakolatlari kengayishi, hududlardagi ishtirokini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Shundan so'ng majlis ishtirokchilari

"Odam savdosi jinoyati uchun jazo choralarini kuchaytirilayotganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi qonunni muhokamadan o'tkazishdi.

Mazkur qonun insonlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda, jumladan, odam savdosi jinoyati uchun mutanosib sanksiyalar joriy etish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgani ta'kidlandi.

O'z navbatida, odam savdosi jinoyati o'g'irlash, zo'riqlik ishlatish yoki zo'riqlik ishlatish bilan qo'riqish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali sodir etganlik uchun jazo chorasi kuchaytirilayotgani alohida ta'kidlandi.

Bundan tashqari, moddada odam

savdosi jinoyati obyekt bo'yicha og'irlashtiruvchi bandlar sifatida homilador ayolga nisbatan sodir etish belgisi qayd qilinmagani, shu nuqtayi nazardan, qonun bilan Jinoyat kodeksiga ushbu qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan og'irroq jazo choralarini belgilovchi o'zgartirishlarni kiritish taklif qilinayotgani aytib o'tildi.

Muhokamalar davomida senatorlar bu qonun kelgusida odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish, unga qarshi samarali kurashish, bunday qilmishlar uchun mutanosib jazo choralarini belgilanishi, bolalar va xotin-qizlar huquqlari samarali himoyalinishiga xizmat qilishini qayd etib o'tishdi.

Majlis yakunida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berish kunlari va vaqti belgilandi

Joriy yil 27-oktyabr kuni o'tkaziladigan saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 11 nafar va mahalliy Kengashlarga 605 nafar nogironligi bo'lgan shaxs deputatlikka nomzod sifatida ro'yxatga olingan.

Shuningdek, saylov komissiyalari tarkibida 1 343 nafar nogironligi bo'lgan shaxs faoliyat ko'rsatib kelayotgani bo'lajak saylovlarda ular uchun teng imkoniyatlar yaratilganini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, bo'lajak saylovlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini yanada kengroq ta'minlash maqsadida 830 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan saylovchilarga ko'mak beruvchi

volontyorlar birlashtirilmoqda.

Majlisda nogironligi bo'lgan shaxslarga o'z saylov huquqlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida saylov byulletenlarini to'ldirish uchun Brayl alifbosi asosidagi trafaret namunasini tasdiqlash, saylov uchastkalarida nogironligi bo'lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus jihozlangan yashirin ovoz berish kabinallari, optik lupalar (kattalashtiruvchi oynalar) hamda qo'shimcha yoritqichlar o'rnatish va saylov uchastkasiga mustaqil ravishda bora olmaydigan saylovchilarning saylov kuni turgan joylarida ovoz berishini tashkil etish masalalari

muhokamadan o'tkazilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Shuningdek, Markaziy saylov komissiyasining qarori bilan Turkiy mamlakatlar Parlament assambleyasining 19 nafar, Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH Parlamentlararo Assambleyasi, Rossiya va Xitoydan 2 nafardan, AQSHdan 3 nafar hamda Buyuk Britaniya, Latviya, Litva, Fransiya, Hindiston va Yaponiyaning 1 nafardan vakillari, jami 36 nafar xorijiy va xalqaro kuzatuvchi akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Majlisda saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

DRAYVER
LOYIHALAR —
AMALIYOTGA

Kambag'allik — jamiyatimizning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan sanaladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda aholining yuqori daromadli barqaror ish bilan bandligini ta'minlash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanadi.

Shu bois eng chekka hududlarda infratuzilma tarmoqlarini barpo etishni qamrab olgan "ko'p o'lchovli" kambag'allikni qisqartirish dasturi hamda yoshlarning innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim olishi va kasb-hunar o'rganishi uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmog'ida.



Shuningdek, barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mullaqo yangi tizim — "temir daftar", "yoshlar daftar" va "ayollar daftar" joriy etildi. Natijada ular bilan tizimli ishlash yo'lga qo'yildi. Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillari tomonidan har bir mahalladagi holat atroflicha o'rganildi, yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilindi, ehtiyojlari, qiziqishlari aniqlanib, shu asosda manzilli choralar ko'riladi. Xususan, ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o'tgan yili 12,3 trillion so'm yo'naltirildi. Pensiya va nafaqalar miqdori 1,5 baravar ko'paytirildi. Mahallada kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm imtiyozli kredit, 7 trillion so'm subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog'cha, maktab, tibbiyot, yo'l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so'm ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib daromad topishi uchun tarqatildi.

Bundan tashqari, 2020-yildan buyon 3 milliarddan 5 million so'mgacha oylik oladigan ishchilar 2 barobar, 5 milliarddan 7 million so'mgacha oluvchilar esa 3 barobar oshdi. Yerga bo'lgan munosabat yildan-yilga o'zgarayotgani, ya'ni tanqislik, undan foydalanish murakkablashayotganiga qaramay 260 ming gektar yer 800 ming kishiga bo'lib berilib, dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati paydo bo'ldi.

E'tiborlisi, xorijiy yondashuvlar asosida eng quyi bo'g'in — mahalla darajasiga tushgan holda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha O'zbekiston tajribasi yaratildi. Sohada olib borilgan ishlar natijasida mamlakatimizdagi kambag'allik darajasini 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqartirishga erishildi.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi Farmon sohada amalga oshirilayotgan ishlarni umummilliy harakatga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hujjatda 2025-yil yakuni bilan kambag'allikni 6 foizgacha qisqartirish maqsadida 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati hamda barcha davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

Shuningdek, "Kambag'allikdan — farovonlik sari" dasturi 2024-yil 1-noyabrdan boshlab "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, 2024-yil 1-dekabrden boshlab "mahalla yettilligi" tomonidan kambag'al oilalarning ijtimoiy sharoiti va kambag'allikka tushish sabablari o'rganilib, ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Kambag'al oilalar reestri shakllantirildi. Aholini Kambag'al oilalar reestriga kiritish va chiqarishning mezonlari ishlab chiqildi.

Yana bir muhim masala. Endilikda har bir tuman va shaharda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga turki beruvchi kamida 5 tadan drayver loyiha ro'yog'ga chiqariladi. Qo'shimcha 50 ming gektar ekin maydonlari kambag'al oilalarga ijaraga beriladi. Shu bilan birga, 2024-2025-yillarda kambag'al oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 80 foizga yetkaziladi.

Bundan tashqari, kambag'al oilaning kamida bitta farzandi xorijiy til, kasb-hunar yoki mutaxassislikka o'qitiladi. Bolalarni kompyuter savodxonligiga o'rgatish, axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha o'quv kurslarida o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Qisqacha aytganda, belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda o'zini shu yurt kelajagiga daxldor deb bilgan har bir vatandoshimiz faol ishtirok etmog'i lozim. Shundaygina ezgu harakatlarimiz amaliy natijaga aylanadi.

Jamshid QOSIMOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ILM-FAN RAVNAQIDA QONUNIYLIK VA MAS'ULLIK

Milliy taraqqiyot strategiyamiz asosida mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimida olib borilayotgan izchil islohotlar ushbu soha faoliyatini tubdan takomillashtirish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi besh yilda ta'limga oid ko'plab qonun, Farmon va qarorlar qabul qilindi. Bu boradagi huquqiy bazani yanada mustahkamladi. Qolaversa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham har kim ta'lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida byudjet hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekani belgilab qo'yildi.

Tahlil

Shu o'rinda 2020 — 2024-yillar davomida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi o'z faoliyatini samarali amalga oshirganini alohida qayd etish joiz.

Binobarin, o'tgan davrda qo'mitamiz sohadagi islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. Chunonchi, qonun ijodkorligi yo'nalishida jami 31 ta qonun loyihasiga mas'ul bo'ldi va ulardan 29 tasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi va boshqa muhim qonunlar shular jumlasidan.

Birgina "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va uni ilg'or xalqaro tajriba hamda amaliyot asosida rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi. Chunki ushbu hujjatga muvofiq o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish metodikasini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Shu bilan birga, unda ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayoni yoki pedagog kadrlarni ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarga jalb etish taqizlanib, bunda rahbarlarning qat'iy javobgarligi belgilandi. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari hamda ta'lim muassasalari faoliyati erkinligi kengaytirildi.

Bugungi kunda ushbu hujjat navqiron avlodning zamonaviy bilimlar, yuqori talabga ega kasb-hunar egallashlari hamda ta'lim olishlarining huquqiy asosini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu tizimda mavjud muammolarni bartaraf etish va ta'lim sifatini yaxshilashga huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda, desak, aslo yangilashmaymiz.

Qo'mitamiz mas'ulligida qabul qilingan muhim hujjatlardan yana biri — bu O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni bo'ldi. U bilan pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasida bo'lishi,

pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari qat'iy belgilandi.

Aytish mumkinki, ushbu hujjat o'qituvchilarning yangi O'zbekistondagi nufuzi va mavqei yanada oshirishga xizmat qilishi barobarida ularning o'z kasbiga mehri va sadoqatini mustahkamlab, jamiyat ardog'ida bo'lishga zarur shart-sharoit yaratdi. Mamlakatimizda har yili 1-oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida bayram qilinishi



va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonundir. Ushbu hujjat bilan Davlat bayrog'idan sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya, madaniy va boshqa ommaviy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotirlash sanalarini bayram qilishda hamda boshqa hollarda ham milliy ramzimizga nisbatan yuksak hurmatni ta'minlagan holda foydalanilishga ruxsat berildi. Bayroq tasviri tushirilgan belgilardan foydalanishda aholiga keng imkoniyatlar yaratildi. Masalan, bayroqdan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki

parlament nazoratiga oid ishlarni ro'yog'ga chiqarishga alohida e'tibor qaratadi. O'z navbatida, qo'mitamiz ham o'tgan davrda ushbu institutning ta'sirchan mexanizmlaridan samarali foydalangan holda, joylardagi tizimli muammolarni hal etish, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari zimmasidagi muhim masalalarning o'z vaqtida ijro etilishi holatini o'rganish hamda uning yakunlari bo'yicha mas'ullar axborotini eshitib borishga jiddiy yondashdi.

Qo'mitamiz tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida 48 ta tadbir o'tkazildi. Ularda faoliyat yo'nalishimizdan kelib chiqib Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi hamda Madaniyat vazirliklari mutasaddilarining axborotlari eshitildi.

Shu bilan birga, qo'mitamiz a'zolari tomonidan "Ta'lim to'g'risida"gi, "Ilm-fan va ijtimoiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlarning joylarda ijro etilishi holati o'rganib borildi. Nazorat-tahlil tadbirlari hamda o'rganishlar yakunidan kelib chiqib qo'mitamiz tashabbusi bilan davlat organlarining mansabdor shaxslariga 5 ta parlament so'rovi yuborildi.

Mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan 116 ta deputat so'rovi jo'natildi. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish, ularni ijobiy hal etishga alohida e'tibor qaratilib, qo'mitamiz nomiga kelib tushgan jami 3 181 ta murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqildi va ularning aksariyat qismi ijobiy hal etildi.

Aholi bilan yaqindan muloqot qilish, saylovchilar bilan tizimli ish olib borish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar vakillarining qabullari ham o'tkazildi. Ularda fuqarolar tomonidan ko'tarilgan 1 430 ta muammodan 850 tasi deputatlar sa'y-harakati bilan bartaraf etildi, qolganlari esa ko'rib chiqish va samarali hal etish uchun tegishli davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborildi.

Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan milliy parlamentning ishtiroki darajasiga bevosita bog'liq. Shu ma'noda, qo'mitamiz qabul qilinayotgan qonunlarda, avvalo, el-yurt manfaatini, aholi farovonligini oshirish, ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimidagi muammolarni ijobiy hal etishda muhim huquqiy asos bo'lmoqda. Maqsad ham aslida shu: mamlakatimizda ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan amaliy tashabbuslarni ro'yog'ga chiqarishdir.

Erkin ZOHIDOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi.

Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari kumitasi
2020 — 2024 yillar davomida faoliyatida:

Shu bilan birga

mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan jami 116 ta deputat suruvi yuborildi.

ham ana shunday hurmat-ehtram va e'zozning davlat miqyosidagi ifodasidir.

Muallimlar faoliyatiga huquqiy, moddiy va ma'naviy kafolatning berilishi inson resursini shakllantirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'z navbatida, bu orqali pedagogning jamiyatdagi nufuzi yuksaldi, pedagogik faoliyatiga bo'lgan talab oshgani holda ta'lim berish tizimi yanada kuchaydi. Asosiysi, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish imkoniyatlari kengayishiga mustahkam zamin yaratildi.

Qo'mitamiz mas'ulligida qabul qilingan qonunlardan yana biri "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish

ish joylarida, transport vositalarining salonida, rasmiy xalqaro tadbirlarda, harbiy yoki boshqa davlat xizmatida bo'lgan shaxslarning kiyim-boshida va farqlovchi nishonlarida, xalqaro sport musobaqalarida hamda O'zbekiston chempionatlarida uchun sport kiyim-boshini tayyorlashda foydalanish mumkinligi belgilandi.

Mazkur Qonun bugungi kunda aholi, ayniqsa, yoshlarning o'z yurtiga nisbatan mehr-muhabbat, faxr-iftixor tuyg'ulari, vatanparvarlik hissingini yanada oshirishga, xalqimizning bayroq bilan yanada yaqinroq munosabatda bo'lishiga xizmat qilmoqda. Zotan, u davlatimiz bayrog'idan faxrlanish imkoniyatlarini kengayitirdi va uni tom ma'noda milliy g'ururimiz timsoliga aylantirdi.

Ma'lumki, har bir qo'mita faoliyati davomida

SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA — BARKAMOL AVLOD SALOHİYATINI RO'YOBGA CHIQRISHNING MUHIM POYDEVORI



“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi mamlakatimizda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan siyosatning mazmun-mohiyatini anglagan holda **“Tarbiya yo hayot, yo mamot...”** g'oyasini hayotga tatbiq etishning asosiy maqsadi hazrati insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishda, deb biladi.

Inson o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun, birinchi navbatda, ta'lim olishi, ma'naviy, madaniy salohiyatini oshirib borishi, jismoniy kamolotga erishishdek fundamental huquq va erkinliklaridan to'laonli foydalanishi talab etiladi. Zero, **“qudratli davlatga tayangan, qonunlar milliy va umuminsoniy qadriyatlariga uyg'un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish”** partiyaning bosh maqsadi hisoblanadi.

Albatta, mazkur ustuvor g'oyalarni hayotga samarali tatbiq etish va belgilangan maqsadlarga erishish kadrilar salohiyatiga bog'liq. Aynan ushbu haqiqatni to'g'ri anglagan holda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi **barkamol avlod salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini** Saylovoldi dasturining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan.

Shu bois partiya o'z dasturida mazkur masalalarga nisbatan kompleks yondashuvni taklif etmoqda, **ma'naviy tarbiya va sifatlil ta'lim**, uning barcha bosqichini rivojlantirish, shuningdek, **jismoniy tarbiya va sport** masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Ma'naviy tarbiya va sifatlil ta'lim — komil insonni shakllantirishning asosiy omili

Barchamizga ma'lumki, har tomonlama rivojlangan va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirish poydevori, avvalo, munosib tarbiyadan boshlanadi. Sifatlil ta'lim olishning asosi ham tarbiyaga borib taqaladi.

Shu bilan bir qatorda, tarbiya va ta'lim o'zaro mutanosib, bir-birini to'ldiruvchi jarayon hisoblanib, ularni ajratib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida tarbiya, tarbiya jarayonida esa ta'lim o'zini namoyon etib turadi. Bu ikki jarayonni o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etish odobli, yuksak ma'naviyatli, qolaversa, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishning asosi hisoblanadi.

Shuning uchun ham partiya Saylovoldi dasturida **ma'naviy tarbiya va sifatlil ta'lim** masalasini barkamol avlod salohiyatini ro'yobga chiqarishda asosiy mezonlardan biri sifatida belgilab, bu borada qator taklif va tashabbuslarni o'rtaga tashlamoqda.

Aytish lozimki, hatto rivojlangan, iqtisodiy taraqqiyotga erishgan qator mamlakatlar tajribasi ham tarbiya masalasi barkamol avlodni shakllantirish, ma'naviyatli inson salohiyatini ro'yobga chiqarishda **hayot-mamot masalasi** ekanini ko'rsatmoqda. Bu borada millatimizning faxru iftixori bo'lgan ma'rifatparvar jaded bobomiz Abdulla Avloniyning: **“Tarbiya — biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”**, degan da'vati ham bundan qariyb bir asr oldin aytilgan bo'lsa-da, uning ahamiyati aslo kamaygani yo'q.

Shu sababli ham partiyaning o'z g'oya va maqsadlariga hamohang ravishda tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgani, bu borada Tarbiya fanini takomillashtirish tashabbusini ilgari surayotgani nafaqat ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga, balki millatning ertangi kuni, taraqqiyoti bilan ham bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqib, partiya **Tarbiya darsligini muntazam takomillashtirib borish** tashabbusini bildirmoqda.

Ayni chog'da partiya tarbiyani jiddiy ilmiy tadqiq qiladigan, oila, bog'cha va maktabda singdirilishi zarur bo'lgan milliy qadriyatlar va ko'nikmalarni aniqlash va ularni samarali singdirish **metodologiyalarini ishlab chiqish** masalalarini dolzarb yo'nalish deb hisoblaydi. Bu borada partiya tomonidan milliy tarbiya asoslari va milliy ta'lim dasturlarini rivojlantirish, uzluksiz tarbiya va ta'lim uyg'unligining **huquqiy asoslarini takomilga yetkazish** choralarini ko'rish bilan bog'liq ustuvor vazifalar taklif etilmoqda.

Mazkur g'oya va tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi ilm-fan yutuqlari va zamonaviy tarbiya metodologiyalarini ishlab chiqish va sohada qo'llash, bu borada milliy qadriyat va mentalitet ustuvorligidan kelib chiqib, milliy dasturlarni yaratish imkonini beradi.

Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish partiyaning ustuvor vazifalaridan biri bo'ladi

Yurt ravnaqi va istiqbolini aynan ta'lim

belgilaydi. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi zamonada ta'lim va tarbiya, ilm va intellekt bemisil ahamiyat kasb etayotganidan kelib chiqib, partiya **maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga** birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qaraydi.

Bu borada shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabgacha va maktab ta'limining sifati, avvalo, pedagog va tarbiyachilarning salohiyatiga borib taqaladi. Salohiyatli pedagog va tarbiyachilar maqsadli tayyorlash va tanlov orqali ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb etiladi.

Shu jihatlardan kelib chiqib, partiya o'z dasturida **quyidagi tashabbuslarni bildirmoqda:**

“Yangi avlod tarbiyachisi va pedagoglarini tayyorlash davlat dasturi”ni qabul qilish, shuningdek, pedagogikaga layoqati bor maktab bitiruvchilarini saralash va davlat buyurtmasi asosida o'qishini tashkil etish; tarbiyachi va o'qituvchilarni ishga qabul qilish va faoliyati jarayonida ularning oldingi ish faoliyatini o'rganish, psixologik testlardan o'tkazish tartibini joriy etish; maktablarga pedagoglarni **tanlov**

yaratish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida **o'qituvchi-pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishga asoslangan shaffof tizimni joriy etish** sohada nafaqat tanish-bilishchilik, korruptsiyaning oldini olishga, balki o'z-o'zidan ta'lim sifatining yanada yaxshilanishiga imkon beradi.

Ta'lim sifati bevosita pedagoglarning salohiyatiga bog'liq ekan, ularni ta'lim muassasasiga qabul qilish tartibini takomillashtirishga real ehtiyoj mavjud. Shu ma'noda, partiyaning Saylovoldi dasturidagi maktablarga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishning shaffof tizimini joriy etish taklifi bugungi kunga mos va dolzarb masala yechimiga qaratilgan tashabbus, deyish mumkin.

Lekin “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o'z Saylovoldi dasturida bevosita ta'lim sifati bilan bog'liq bo'lgan pedagoglarni qabul qilishga emas, **tarbiyalanuvchilarni qabul qilish masalasiga e'tibor qaratmoqda.** Ya'ni “Adolat” partiyasi ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini ishlab chiqish, ayniqsa, davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish tartibini

yaratish, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limning 1-sinlarida **ona tili bilan birgalikda davlat tilini ham o'rgatish**, 6-sinfidan tanlov asosida **ikkita xorijiy tilni** o'qitish, boshlang'ich sinf o'quvchilari **bilimini baholash tizimini isloh qilish** kabi tashabbuslari ham uning maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish borasidagi pozitsiyasi qat'iy ekanini ko'rsatadi.

Umuman, bu tashabbuslarning hayotimizga tatbiq etilishi bugungi kunda juda dolzarb masalalardan biri — milliy kontentga bo'lgan ehtiyojni qondirish, partiya g'oya va maqsadlarida ustuvorlik kasb etadigan davlat tili nufuzini yanada oshirish barobarida xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, yoshlar bilim va ko'nikmalarini baholash tizimini zamonaviy standart va milliy qadriyatlar uyg'unligida isloh qilish imkonini beradi.

Kasb-hunar, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi

Ta'lim va tarbiyasiz, har tomonlama yetuk, intellektual avlod kamolisiz taraqqiyotga ham, yuksalishga ham, farovon hayot va istiqbolga ham erishib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, **ta'limga kiritilgan investitsiya eng muhim investitsiyalar sirasiga kirib**, nafaqat bir mamlakat yoki xalqni, balki butun jahonni ham umumbashariy taraqqiyot va tamaddun sari yetaklaydi.

Shundan kelib chiqib, partiya o'z dasturida barcha ta'lim turini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratib, sohani kompleks ravnaq toptirish borasidagi muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mehnat bozorida zamonaviy kasb va boshqa faoliyat turlari kengaymoqda. Zamonaviy kadrlarga qo'yiladigan mehnat bozori talablari ham o'zgarib bormoqda. Ayni shu jihatdan, partiyaning kadrlar tayyorlashda **xalqaro mehnat bozorini inobatga olish tashabbusi** raqobat muhiti kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o'ta muhim. Bugun zamon qanday kadrlarni so'rayapti, yoshlarimizning ertangi kuni, farovon turmushi va bandligini ta'minlashda biz qanday ishlashimiz kerak,



imtihonlarni shaffof va adolatli o'tkazish borasidagi aniq vazifalar ustida ishlash lozim.

Shu sababli, partiya o'z g'oyalardan kelib chiqib barcha oliy ta'lim muassasasida **ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratishni** kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida ilgari suradi.

Aslida ta'limning nechog'li sifatlil ekanini baholashda bundan manfaatdor bo'lgan talabalarning fikrini o'rganib borish muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmning amaliyotga tatbiq etilishi esa ta'lim jarayoniga baho berish, uni iste'molchisi bo'lgan talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida takomillashtirish imkonini beradi.

Partiya mamlakat oldida turgan strategik vazifalarni samarali hal etish ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishdan mumkin emasligini yaxshi tushunadi. Shu haqiqatni to'g'ri anglagan holda, Saylovoldi dasturida quyidagi muhim **tashabbuslar ilgari surilmoqda:**

“Innovatsion faoliyat va uni tijoratlashtirish to'g'risida” va **“Venchur uyushmalar to'g'risida”**gi qonunlarni qabul qilish;

milliy ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimini **qayta ko'rib chiqish**, byurokratik talablarni bekor qilish, **Oliy attestatsiya komissiyasini** isloh etish.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayoniga zamonaviy istiqbolli ilmfan yutuqlarini joriy etish, mamlakatimizda ilmfanni yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyatga iste'dodli, qobiliyatli yoshlarni jalb etish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, 2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiy sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning (fan nomzodi, falsafa va fan doktorlari) ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish rejasini belgilagan.

Shundan kelib chiqib, partiya tomonidan bildirilgan yuqoridagi tashabbuslar yurtimizda ilmiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarni ilimga jalb etish, bu boradagi ayrim byurokratik talablarni bekor qilish imkonini beradi.

Qolaversa, partiya Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan **“Innovatsion faoliyat va uni tijoratlashtirish to'g'risida”** va **“Venchur uyushmalar to'g'risida”**gi qonunlarni qabul qilish tashabbuslari soha huquqiy asoslarini mustahkamlash asosida aniq maqsad va vazifalar orqali ilmiy faoliyatni takomillashtirish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jismonan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi

Barkamol avlod salohiyatini to'laonli ro'yobga chiqarish “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining **jismoniy tarbiya va sport masalalarida** ilgari surayotgan g'oyalari ham mustahkam o'rin egallagan. Zero, jismoniy tarbiya va sport kelajak avlod kamoli va aholi barcha qatlami uchun birdek muhim masaladir.

Umuman, so'nggi yillarda mamlakatimizda sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish borasida amalga

Xulosa o'rinda aytganda, partiya o'ziga xos yondashuvi maktabgacha ta'limdan to'liq ta'limdan keyingi ta'limgacha modernizatsiya qilishni nazarda tutadigan, sinergetik maqsadga erishishga yo'naltirilgan kompleks tizimni tashkil etadi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Saylovoldi dasturida aks etgan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, jismoniy tarbiya va sport masalalarini rivojiga qaratilgan barcha taklif va tashabbuslar jismonan va ma'nan barkamol bo'lgan yangi avlod kadrlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy yuksalish uchun “Milliy tiklanish” partiyasi va uning nomzodlariga ovoz bering!

Bahodir MAMATXONOV, Vasila FAYZIYEVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar.

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI



Qadriyatlarga TAYANGAN TARAQQIYOT

asosida ishga qabul qilishning shaffof tizimini joriy etish.

Mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan va malakali pedagoglar korpusini yaratishga qaratilgan mazkur tashabbuslar sifatlil ta'lim va tarbiyani ta'minlashda asosiy yechim hisoblanadi.

“Yangi avlod tarbiyachisi va pedagoglarini tayyorlash davlat dasturi”da o'z ustida ishlaydigan, to'xtovsiz rivojlanishga ehtiyoj sezadigan, shogirdlarida ham shunday kayfiyat ko'nikmasini yaratadigan ustozlarni tayyorlash va saralash masalalariga katta e'tibor berish lozim.

Shu bilan bir qatorda, bolalarning yoshi, psixologik holati hamda boshqa ijtimoiy jihatlaridan kelib chiqib, tarbiyachi va o'qituvchilarni ishga qabul qilish va faoliyati jarayonida ularning oldingi ish faoliyatini o'rganish, psixologik testlardan o'tkazish tartibini joriy etish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu, avvalo, ayrim pedagog kadrlarning ta'lim muassasalariga “adashib” kelib qolishining oldini olishga, pedagog degan yuksak, sharafli va mas'uliyatli kasb egalari ta'lim va tarbiya berish bilan shug'ullanishiga imkon beradi.

Shuningdek, pedagoglarni ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlashda bugungi kungacha o'zining munosib yechimini kutayotgan masalalar bor. Ya'ni ta'lim-tarbiya sifati bilan bevosita bog'liq bo'lgan munosib pedagog kadrlarni ishga olish, bu bo'yicha shaffof tizimlarni

qayta ko'rish, bu borada “ochiq onlayn ro'yxat” tashkil etish bilan bog'liq tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ammo umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilish masalasi ham tashkiliy, ham huquqiy jihatdan to'liq tartibga solingan.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga tarbiyalanuvchilarni qabul qilish tartibini qayta ko'rib chiqish borasida “ochiq onlayn ro'yxat” tashkil etish taklifiga keladigan bo'lsak, bugungi kunda bu masala allaqachon onlayn navbat tartibini tashkil etgan holda hal qilingan. Xususan, bola tug'ilganidan boshlab, tibbiyot muassasalarida yoki FHDYO organlarida maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul uchun onlayn navbatga qo'yish amaliyoti joriy etilgan. Shu jihatdan, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining yuqoridagi tashabbuslari bir tomonlama o'ylangan va amalga tartibga solingan masalalarga qaratilgan takliflar hisoblanadi.

Agar “Adolat” partiyasi mazkur masalalar yuzasidan amaldagi tartiblarni takomillashtirishni nazarda tutgan bo'lsa, uni qanday tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vositasida amalga oshirmoqchi ekanligi takliflarda o'z ifodasini topmagan.

Shu bilan bir qatorda, partiyaning bevosita bolalar ta'limi, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan **uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun umummilliy qadriyatlarga tayangan milliy videomahsulotlar kontentini**

ularni qanday kasb-hunarlarga o'qitishimiz zarur, degan hayotiy savollar asosida keyingi qadamlarimizni tashlashda **aynan partiya yuzasidagi tashabbusi dasturilamal bo'lishi lozim.**

Bundan tashqari, malakali kadr tayyorlashda asosiy bosqich, bu — oliy ta'lim sanaladi. Shu bois oxirgi yillarda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari, xususan, oliy ta'lim olishga keng imkoniyat yaratish borasidagi real islohotlarni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda, sondan sifot ko'rsatkichiga o'tish — bu borada oliy ta'limni **kirish oson, bitirish qiyin** maskanga aylantirish tashabbusi ilgari suriladi.

E'tibor beradigan bo'lsak, 2023-yilda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan **38 foizga** oshirilgan bo'lsa, joriy yildagi ma'lumotlarga ko'ra, 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi **43 foizdan** oshishi mumkin. Nodavlat oliy ta'limga keng imkoniyatlar berilishi natijasida bugungi kunga kelib mamlakatimizda jami **210 dan ortiq** oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, shundan **100 ga yaqini** nodavlat va xorijiy oliy o'quv yurtlari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Bu erishilgan yutuqlarni izchil davom ettirish, bu borada oliy ta'lim sifati asosiy vazifalardan biri bo'lishi lozim. Bu borada o'quv reja va dasturlarni mehnat bozori talablari asosida ishlab chiqish, pedagoglar salohiyatini oshirish,

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Sohada qat'iy islohotlar boshlanganiga hali ko'p vaqt bo'lganicha yo'q, lekin xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning ko'rsatkichlari yil sayin yuqorilayapti. Quvonarlisi, xorijiy mamlakatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar ham korruptsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi chora-tadbirlarimizni haqli e'tirof etmoqda.

Masalan, yaqinda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotida Istanbul harakatlar rejasining 5-round monitoring natijalari O'zbekistonning aksilkorruptsiya siyosati Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori baholandi. Bu O'zbekistonning korruptsiyaga qarshi kurashishda to'g'ri va oqilona yo'ldan borayotganining dalolati.

Qolaversa, O'zbekiston mintaqaviy hamda xalqaro miqyosda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ilg'or tashabbuslarni ilgari suruvchi va qo'llab-quvvatlovchi mamlakat sifatida allaqachon o'zini namoyon etib ulgurdi. O'tgan yili Toshkent shahrida BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasini Markaziy Osiyoda jadal amalga oshirish bo'yicha Mintaqaviy platforma ishga tushirilgani, shuningdek, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofotning tantanali taqdirlash marosimiga mamlakatimiz mezbon bo'lgani so'zimizning isboti.

Yaqin kunlarda O'zbekiston tashabbusi bilan yana bir nufuzli tadbir - IV xalqaro aksilkorruptsiya forumini o'tkazamiz va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jahondagi o'zgarishlar, yangi mexanizmlar hamda tendensiyalarni muhokama qilib, bu borada xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniga ega bo'lamiz.

Keyingi paytlarda Ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa manbalarda yurtimizda korruptsiyaviy jinoyatlar oshib borayotgani yoxud uning tanishib-tilishchilik, poraxo'rlik kabi turlari "bolalab" ketayotgani haqida ko'p gapirilmog'ay. Bunga fikringiz qanday?

To'g'ri, so'nggi vaqtlarda jamiyatdagi ko'plab muammolar qatorida korruptsiya ommaviy axborot vositalarining asosiy fokusidagi mavzulardan biriga aylanib, u haqda erkin va oshkora aytila boshlandi. Bu juda quvonarli. Chunki bu, avvalo, ochiqlik siyosatining samarasi, avvallari mediada korruptsiya so'z deyarli ishlatilmasdi. Bugun esa mamlakatda korruptsiyaning mavjudligini ochiq tan olgan holda jamoatchilik nazoratini olib boryapmiz.

Haqiqatan ham, OAVda korruptsiya jinoyatlari to'g'risida xabarlar ko'paydi, ammo ularning soni ortib borayotgani masalasida tahlil natijalari jamiyatdagi qarashlardan farq qiladi: O'zbekistonda korruptsiyaga oid jinoyatlar salmog'ida o'tgan yildagiga nisbatan kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Aniqrog' aytadigan bo'lsak, 2023-yilda korruptsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslar soni 2022-yildagiga nisbatan 12 foizga, jinoyatlar soni esa 11 foizga kamaygan. Shu bilan birga, korruptsiyaga oid jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zarar ham o'tgan yildagiga nisbatan 608 mlrd. so'mga yoki 29 foizga kam.

Shuni unutmash kerakki, korruptsiya jinoyatlarining aksariyati latent, ya'ni yashirin bo'lib qoladi. Shu sababli korruptsiyaga oid jinoyatchilik holati bu mamlakatdagi korruptsiya darajasini aniq aks ettirmaydi.

Zamon talablari asosida korruptsiyaga qarshi kurashishning yangi, preventiv mexanizmlari ham joriy qilinayaptimi?

Albatta. Uzoqqa bormaylik, bundan ikki yil oldin biz xalqimizga, xalqaro maydonlarda, katta minbarlarda, asosan, qilmoqchi bo'lgan ishlarimiz, rejalarimiz

haqida gapirar edik, bugun esa amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari haqida ham bemalol fikr aytishga yetarlicha asoslanimiz bor.

Masalan, davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etdik. Yana bir muhim mexanizm, bu - davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish hamda baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksidir. Bu yil ikkinchi bor ushbu indeks e'lon qilindi. Mazkur tizimlar korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida belgilangan vazifalarni samarali monitoring qilish bilan birga, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, sohada sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish hamda tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini yanada oshirish imkonini bermoqda.

Baholash yakunlari bo'yicha yaxshi natijalarni qayd etgan davlat tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ijobiy tajribasini ommalashtiryapmiz, qoniqarli deb baholanganlarga korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar kirityapmiz, ko'mak beryapmiz. Qoniqarsiz

16,4 foizi ozodlikdan mahrum qilingan.

Eng ko'p sodir etilgan korruptsiyaga oid jinoyatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish (2 067 ta), pora berish (894 ta), firibgarlik (769 ta), pora olish (121 ta) va hokimiyat yoki mansab vakolati suiiste'moli (125 ta) hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, xo'jalik yuritish hamda tadbirkorlik, ta'lim, bank yo'nalishida, sog'liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish sohalarida eng ko'p korruptsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan.

Jinoyat javobgarlikka tortilgan shaxslarning 12 nafari respublika, 319 nafari viloyat, 5024 nafari tuman-shahar miqyosidagi davlat tashkilotlarida faoliyat yuritgan.

Jinoyatlar tahlili ko'rsatishicha, muqaddam sudlangan shaxslarning davlat xizmatiga qabul qilinishi ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratib bermoqda. Jumladan, 2023-yilda 1 146 nafar muqaddam sudlangan shaxs tomonidan korruptsiyaga oid jinoyatlar sodir qilingan bo'lib, ularning 566 nafari muqaddam sodir etgan korruptsiyaviy jinoyatlari uchun sudlangan.

2022-2023-yillar davomida 876 nafar shaxs davlat organlari va tashkilotlariga

xoli" tizimga aylanadi? Buning uchun ishini qanday tashkil etish kerak, deb hisoblaysiz?

Sog'liqni saqlash sohasida korruptsiyaga imkoniyat yaratib berayotgan qator muammolar saqlanib qolayotgani og'riqli nuqtalarimizdan biri. Chindan ham, sohada "Korruptsiyasiz soha" loyihasi doirasida ushbu illatning oldini olish, tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonlarining barcha bosqichida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimiz orqali hali biz kutgan, xalqimiz kutayotgan va xohlayotgan natijalarga erisholmayapmiz, bu hali yana ko'p mehnat va vaqt talab etadi.

Tizimda korruptsiyaga oid jinoyatlarning asosiy qismi xodimlarning ish haqlarini o'zlashtirish, ishga kiritish yoki ish soatini ko'paytirish, tibbiy muolajalar uchun pora olish, davlat xaridlari, tibbiyot muassasalariga tegishli mol-mulklar va byudjet mablag'larini o'zlashtirish kabi holatlar bilan bog'liq.

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining o'zida hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar turibdi. Jumladan, vazirlik tizimidagi tibbiyot muassasalari zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga, marketingning so'nggi tamoyillariga asoslanmagan



berish tizimi davlat xizmatlari markazlariga o'tkazilmagani sohada korruptsiyaviy omillarning saqlanib qolinishiga sharoit yaratmoqda.

Ko'rib turganingizdek, muammolar ko'p, buni yashirmayman. Ularni hal etish ham oson kechmaydi. Lekin tibbiyotni "korruptsiyadan xoli" sohaga aylantirish uchun shu kabi to'planib qolgan muammolarga oqilona hamda samarali yechimlar ko'rilyapti. Kamchiliklar tan olinib, ularni bartaraf etish uchun zarur imkoniyatlar ishga solinyapti. Bularning aniq natija va samarasi ham uzoq kutirmasligiga ishonaman.

raqamlashtirish va interfaol platformalarni joriy etish borasida samaradorlik reytingi va xavf-xatarlarni baholashga qaratilgan "e-anticor.uz" platformasi, aholi murojaatlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga qaratilgan "Eantico.uz" platformasi va mobil ilovasi, "Ochiqlik indeks"ni baholashni raqamlashtirgan "Open.index" platformasi, davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka mas'ul xodimlari malakasini oshirishga qaratilgan "E-learning" ta'lim platformasi ishga tushirildi.

Bu yil Yevropa Ittifoqi, BMT Taraqqiyot dasturi va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) sherikligida qiymati 7 mln. dollarlik "O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi milliy ekotizimni mustahkamlash" va "O'zbekistonda boshqaruvni takomillashtirish: inklyuziv ravishda korruptsiyaning oldini olish" loyihalarini ishga tushirdik. Mazkur loyihalar doirasida O'zbekiston aksilkorruptsiya siyosatiga oid hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, halollikni baholash tashabbusini joriy etish, korruptsiyaga oid islohotlarning barcha hududga yetib borishini ta'minlash hamda bu jarayonni samarali muvofiqlashtirish borasida ko'plab ishlarni rejalashtirganmiz.

Korruptsiyaga qarshi murosasiz kurashish uchun yana nimalar qilish kerak deb hisoblaysiz? Umuman, O'zbekistonni ushbu illatdan butunlay xoli mamlakatga aylantirish mumkinmi?

Shu paytga qadar dunyo miqyosida mutaxassislar, muassasalar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali usullarini topish maqsadida korruptsiya manbasini aniqlash va o'rganish uchun yuzlab, minglab tadqiqotlar olib borilgan va bu hanuz davom etib kelmoqda. Shuningdek, turli indekslarni hisobga olgan holda noyob reyting hamda jadvallar yaratilgan. Qolaversa, har xil formulalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, mazkur illatga qarshi barcha xalqar uchun mos keladigan umumiy yechim hanuz topilgan emas.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, korruptsiyaga qarshi kurashishda alohida choralarini qo'llash samarali emas, aksincha, bu faoliyat majmuviy tarzda mutamant ravishda amalga oshirilsagina yaxshi natijaga erishiladi. Bu borada ijobiy tajribaga ega davlatlarimiz ham korruptsiyaga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish hamda oldini olish choralariga katta e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin.

Korruptsiyani batamom yo'q qilish imkonsiz, ammo uni minimallashtirishga erishish mumkin va buni dunyo mamlakatlari o'z tajribasi misolida isbotlab kelmoqda. O'zbekistonda ham korruptsiyaga qarshi jarayotgan ishlohi har kim o'zidan boshlashi kerak. Zero, eng muhim kurash vositasi, avvalo, shu. Oilada, ta'lim-tarbiya maskanida, davlat xizmatida, umuman, hayotimizda halollik ustovor bo'lishi kerak. Qolaversa, befarqlik, e'tiborsizlikni yengishimiz shart. Biz olib borayotgan islohotlarning ta'sirchanligi hamda samarasida bularning barchasi juda muhim.

Mazkur yo'lda hali ko'p ishlar qilinishi kerakligini barchamiz yaxshi anglab turibmiz. Ammo har qancha murakkab bo'lmasin, korruptsiyaga qarshi murosasizlikni, birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni to'xtatmasak va har bir fuqaro "halollik vakinasini" olsa, albatta, O'zbekistonda korruptsiyadan xoli jamiyat barpo etish umumiy orzu-intilishdan real voqeelika aylanishiga ishonaman.

Rahim Sherqulov ("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

KORRUPSIYA

JAMIYATNI TURLI YO'LLAR BILAN ISKANJAGA OLADIGAN DAHSHATLI ILLAT

ko'rsatkichlarga ega bo'lgan davlat tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, ijrosini ta'minlash yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlari har chorakda O'zbekiston Respublikasining Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishlarida eshitib borilishi yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni ham baholab kelyapmiz.

Respublika darajasidagi barcha davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etilishining majburiy tartibi joriy qilinishi ham alohida ahamiyatli. Bugungi kunda 116 ta davlat idorasida ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shiddat bilan o'zgarayotgan ayni zamonada barcha davlatda korruptsiyaning yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Bu esa unga qarshi kurashishning zamonaviy va samarali metodlarini yangilash hamda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Biz ham ana shu talab va ehtiyoj asosida sohaga yangiliklarni tatbiq qilishda davom etyapmiz.

Agentlik tomonidan doimiy ravishda korruptsiya holatlar tahlili yuritiladi. Aytinch, tahlillar bo'yicha eng ko'p korruptsiya holatlari qaysi soha yo tarmoqlarda uchrayapti?

O'rganishlarimizga ko'ra, 2023-yilda respublika bo'yicha jami 6 535 nafar shaxs (2022-yilda 7 414 nafar) korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoyi javobgarlikka tortilgan bo'lib, ularning 1 076 nafari yoki

ishga qabul qilish bilan bog'liq holda sodir etilgan korruptsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Mazkur jinoyatlarni sodir qilganlarning 282 nafari sog'liqni saqlash, 72 nafari xalq ta'limi, 65 nafari maktabgacha ta'lim, qolgan boshqa soha vakillari.

Sog'liqni saqlash tizimiga fuqarolarni kichik tibbiyot xodimi, hamshiralik, feldsherlik va farrosh, maktabgacha ta'lim tizimiga tarbiyachi hamda texnik xodim, maktab ta'limi tizimiga o'qituvchi va texnik xodim sifatida ishga qabul qilishda korruptsiya holatlari, milliy gardiya, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga fuqarolarni pora berishga dalolat qilgan holda firibgarlik yo'li bilan ishga kiritib qo'yish holatlari nisbatan ko'proq kuzatilgan.

Ushbu holatning yuzaga kelishiga ish qidirayotgan fuqarolarga davlat korxonaga, muassasa va tashkilotlaridagi bo'sh ish o'rinlari haqida shaffof ma'lumotlar berish tizimi lozim darajada shakllanmagani o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Davlat korxonaga, muassasa hamda tashkilotlarining mansabdor shaxslari mavjud bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni yashirish orqali turli korruptsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etish uchun o'zlariga shart-sharoit yaratmoqda, ish beruvchi tomonidan mavjud vakant o'rinlarga ishga joylashishni so'rab murojaat qilgan fuqarolarga nisbatan tamagirlik holatlari hamon uchray turibdi.

Eng ko'p xodimlar mehnat qiladigan tarmoq - sog'liqni saqlash tizimi. Aholining ko'p ishi tushadigan soha ham shu. Ko'p kuzatamiz, bu sohada korruptsiya holatlari deyarli kuniga qulog'imizga chalinadi. Aytinch, bu tizim qachon "korruptsiyadan

holda, eskicha usul va yo'nalish bo'yicha boshqaruvni o'zida saqlab qolmoqda. Xususan, barcha tibbiyot muassasasida boshqaruv tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan, professional boshqaruv bo'yicha yetarli kompetensiyaga, shuningdek, moliya-iqtisod masalalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lmagan bosh shifokorlar zimmasida qolyapti. Bu esa, o'z navbatida, ayrim tibbiyot muassasalarida iqtisodiy mablag'larni jalb etish, ularni tasarruf qilish bilan bog'liq yo'nalishlarda jiddiy muammolar, hatto moliyaviy qonunbuzilish holatlarining ham kelib chiqishiga sabab bo'layotir.

Vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati yetarli darajada bo'lgan qo'yilmagan. Jumladan, vazirlik markaziy apparati 5 nafar shtat birligi asosida ichki nazorat tuzilmasi faoliyati yo'lga qo'yilishi bilan cheklangan. Biroq vazirlikning hududiy boshqarmalari hamda ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida ushbu tuzilma faoliyati tashkil etilmagan.

Vazirlik tizimida umumiy hisobda 1 ming 500 dan ortiq tuzilmalarning mavjudligi, uning markaziy apparati yetarli texnologik resurslar va ulardan foydalanish mexanizmlari yetarli ta'minlanmagani sababli xodimlarni ishga qabul qilish, lavozimiga tayinlash hamda ularga ish haqlarini hisoblashda korruptsiyaviy qonunbuzilish holatlari kelib chiqmoqda.

Bepul tibbiy xizmat olish huquqini beruvchi orderlarni taqsimlash jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash borasida tartib ishlab chiqilgan bo'lsa-da, biroq order berish tibbiyot muassasalari va oilaviy poliklinikalar tomonidan amalga oshiriladi. Ya'ni ushbu tizimni to'liq shaffoflashtirish va inson omilini maksimal darajada kamaytirishga qaratilgan ishlar oxirigacha yetkazilmagan. Bunda order

«ONAM BILAN MASHOQ TERGANMAN...»

Ikki sirdaryolik hamsuhbat bo'lsa, darrov bir-biridan so'raydi: - Siz Mirzacho'lni obod qilishda bosh-qosh bo'lgan Rahmon Hikmatovni taniysizmi? Men shu otaxon istiqomat qiladigan Mirzacho'lni mahallasidanman. Bundan ajablangan hamrohi ham shu savolni, albatta, takrorlaydi: - Katta idoralarda ishlagan Rahmon otami? Bizning Mirzaobod tumanidan...

EL E'ZOZIDAGI INSONLAR

Hayotning pastu balandini ko'rgan otaxon esa o'zi haqida shunday deydi: - Bu yil to'qson ikkiga kirdim. Dorilamon kunlarga yetkazganiga shukr! Bugunimdan mingdan-ming roziman. - Yuzdan oshganingizda ham shu shijoat bilan yashang, - deydim. Bu so'zdan bobo ruhlanib, biz bilan xotiralarini bo'lishadi: - Ne-ne suronli kunlarni ko'rmadik, bolalik chog'larimiz oting o'chgur urush ayni avjiga chiqqan, norg'ul yig'itlar frontda, o'roqchilarning aksari ayollar

va o'smirlar edi. Kunbo'yi o'roq ko'tarib yurgan onanimg madori quriganida mashoq terishga yordam berardim. Mashoq degani, bu o'roq tekkanda yarim-yorti tushib qoladigan bug'doy boshog'i, bir soat astoydil egilsang, terganing yarim etak chiqadi. Qamchisidan qon tomib turgan rais onamga shu bir hovuch donni ham ravo ko'rmasdi. O'shanda g'allakor bo'lib, dasturxonimizni nonga to'ldirishni niyat qilganman.

1949-yilda Samarqanddagi 1-maktabni tugallab, qishloq xo'jaligi institutida tahsil oldim. 1955-yilda T. Ahmedov nomidagi sovxozda agronom sifatida ish boshladim. Ko'p yillar davomida shu sohada faoliyat ko'rsatdim. 1982-yilda "Mirzacho'lni" davlat

xo'jaligida rahbar bo'lib, dastlab zabob suvlarni qochirish uchun zovur va kollektor-drenajlarni qurish tashabbusini ko'tarib chiqdim. Paxta, g'allazorlar uchun unumdor yerlar ochildi. Qayerda mehnat qilmay, zimimga yuklatilgan vazifani astoydil bajarishga intildim, har ishda onanimg maslahati, duolariga tayandim.

Yaratganga shukr, endi odamlar g'alla ekib, o'roq o'rib bir hovuch bug'doyga haddi sig'magan zamonlar ortdi qoldi. Bugungi dehqon oddiy ishchi emas, fermer yoki tadbirkorga aylandi. Bozorlarga borsangiz, o'z mahsulotlarini sotish uchun alohida rastalar ajratilgan. To'y-ma'rakalarga borsam, dasturxonidagi shirmoy nonlarni ko'zinga surtaman. Xalqimizning irodasi bilan g'alla mustaqilligiga erishdik. Non-nasibamiz butun bo'ldi.

Biz mehnatimiz bilan paxtazoru, g'allazorga aylantirilgan maydonlarda yangi texnikalar hosil o'rib yurganini ko'rsam, ko'zim quvnaidi. Mirishkorlar don-dunni nobud qilmay, elimiz dasturxoniga

yetkazib bermoqda. Prezidentimiz ham el-yurt ichida yuribdi. Xalqimizning holidan oqoh. Elining mehnati davlatni boyitadi-da! El-yurtga kamarbasta bo'lgim kelaveradi. Qani, avvalgidek kuch-quvvatim bo'lsa... - Hali ham bardamsiz. Yuzda ham hayotdan rozi bo'lib yuring, - deydim. - Xalqimiz, davlatimiz ardog'ida, e'zozu hurmatda keksalik gashтини suryapmiz. Turmush o'rtog'im Nasibaxon bilan salkam yetmish yil tinch-totuv hayot kechirdik. Halol mehnat bilan o'n to'rt farzandni tarbiyalab, elga qo'shдик. Qirqta nevara, qirq bitta chevaraning suyuqli boba-buvisi bo'lib o'tiribmiz. Nevaralarimdan 22 nafari oliy ma'lumotli, 4 nevaram oliy ta'lim dargohlarida tahsil olmoqda. 50 ga yaqin nevara va chevaralarim o'rta maktablarda o'qimoqda. Ularga doim aytadigan gapim shu: bolalarim, mamlakatimiz kelajagi bilim olayotgan yoshlar qo'lida. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'qing va izlaning!

Yana bir gap. Prezidentimizning keksa avlod vakillariga ko'rsatayotgan alohida g'amxo'rliqi, ularning salomatligi, oilaviy shart-sharoitlarini yaxshilash uchun joriy kuydirayotgani faxrliylarni quvontirmoqda. Keksalarni e'zozlash, hurmat-ehitrom ko'rsatish shunchalik bo'ladi-da! Shu bois nafaqaga chiqib ham bekor o'tirgim kelmaydi. Mahalladagi e'zozli oqsoqollardan biri sifatida elning quvonchu qayg'usida hamisha birgaman.

...Yillar davomida elga xizmat qilgan, endilikda boy mehnat tajribasi, hayotiy hikmatlari bilan jamiyat ravnaqiga hissa qo'shayotgan otaxon har bir duosida bugungi to'kis, farovon kunlar uchun shukrona aytadi. Yoshlarga tinchlik oliy ne'matligini, uni qadrlash kerakligini uqtirishdan charchamaydi. "Ilohim, yurtingizni yomon ko'zlardan asrasin, tani sihatlik, tinchlik-xotirjamlik bardavom bo'lsin!" deydi Rahmon bobo xayrlashar chog'imizda.

Adiba UMIROVA ("Xalq so'zi").

Advertisement for "Xalq so'zi" newspaper. Includes contact information: "Bosh muharrir O'tkir RAHMAT", "2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda." Also includes a QR code, ISSN 2010-6784, and subscription information: "MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhah S. Islomov." and "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 00.45 Topshirildi - 01.10 1 2 3 4 5 6